

Moliyani to'g'ri boshqarish

Nega shaxsiy moliyani boshqarish muhim?

Moliyaviy muvaffaqiyat — katta daromadlarda emas, balki mavjud mablagʻni toʻgʻri boshqarishda.

- ▶ Ushbu taqdimotning maqsadi:
- ▶ *Moliyaviy savodxonlikni oshirish*
- ▶ *Shaxsiy byudjet tuzishni oʻrgatish*
- ▶ *Ortiqcha xarajatlarni kamaytirish*
- ▶ *Barqaror moliyaviy hayot sari amaliy yoʻl koʻrsatish*

Shaxsiy moliya — bu shaxsiy daromadlar, xarajatlar, qarzlar va jamg'armalarni rejali ravishda boshqarish hamda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish jarayonidir.

Nega bu muhim?

- ▶ Moliyaviy harakatlar ustidan to'liq nazorat o'rnatiladi
- ▶ Yetishmovchilik va kutilmagan holatlardan xatar kamayadi
- ▶ Xarajatlar rejalashtiriladi, ortiqcha sarflar kamayadi
- ▶ Jamg'arma qilish orqali moliyaviy xavfsizlik ta'minlanadi
- ▶ Oilaviy barqarorlik va kelajakka ishonch shakllanadi

Daromad va harajat — asosiy tushunchalar

Daromad:

- ▶ doimiy va vaqtinchalik mehnat xaqi
- ▶ pensiya, nafaqa,
- ▶ davlat yordami,
- ▶ qo'shimcha xizmatlardan tushadigan pul mablag'laridir.

Xarajat:

- ▶ - oziq-ovqat,
- ▶ - kommunal to'lovlar,
- ▶ - dori-darmon,
- ▶ - bolalar ehtiyojlari va boshqalar.

Moliyaviy rejalashtirish: kunlik, haftalik, oylik

- ▶ **Kunlik:** Kunlik limitni aniq belgilab oling. Har kuni belgilangan miqdordan ortiqcha sarflamaslikka xarakat qiling.
- ▶ **Haftalik:** Asosiy xaridlar uchun oldindan ro'yxat tuzing. Bozorga ketayotganda aynan shu ro'yxat asosida harakat qiling.
- ▶ **Oylik:** Kommunal to'lovlar, ijara va kredit to'lovlarini oy boshida yoki daromad tushgan kunlarda rejalashtiring. Zaxira uchun alohida qism ajrating.

Eng keng tarqalgan jamg'arma usullari:

- ▶ **“6 kuza” usuli** - Daromadni 6 qismga bo'lish: ehtiyojlar 55%, jamg'arma 10%, ta'lim va hordiq 10%, investitsiya 10%, xayriya 5%.
- ▶ **Avval o'ziga to'lash** - Maoshdan 10-20% ni avval jamg'armaga ajratish.
- ▶ **Konvert usuli** - Har bir xarajat uchun alohida konvert.
- ▶ **50/30/20 qoidasi** - 50% — ehtiyoj, 30% — xohish, 20% — jamg'arma.
- ▶ **Kichik jamg'arma** - Har kuni oz miqdorda jamg'arish (masalan, 10-20 ming so'm).
- ▶ **Avtomatik jamg'arma** - Bank ilovasi orqali ma'lum sanada o'tkazmalarni sozlash.
- ▶ **Maqsadli jamg'arma** - Aniq maqsad va muddat bilan rejali jamg'arish.

JAMG'ARMANI SAQLASH USULLARI

1. Chorva (qora mol va boshqalar)

2. Zargarlik buyumlari

3. Qimmatbaho metallar

4. Bank omonatlari

5. Xorijiy valyuta

6. Ko'chmas mulk va boshqalar



Kutilmagan harajatlarni uchun moliyaviy yostiqcha

Moliyaviy yostiqcha nima?

- ▶ Kutilmagan holatlar uchun tayyorlab qo'yiladigan zaxira mablag'.
- ▶ **Miqdori:**
3-6 oylik xarajatga teng.
- ▶ **Nega uni shakllantirish muhim?**
 - Kasallik
 - Ishsiz qolish
 - Ta'mir va boshqa shoshilinch holatlar
- ▶ **Uni qayerda saqlash kerak?**
 - Aloxida konvertida
 - Bank kartasida
 - Jamg'arma hisobida
- ▶ **Qoida:**
Faqat zaruratda foydalaning - "tegmaslik qoidasi".

Qo'shimcha daromad manbalari

- ▶ **Uy sharoitida amalga oshiriladigan faoliyatlar** — tikuvchilik, taom tayyorlash, repetitorlik, tomorqa xo'jaligi va h.k.
- ▶ **Qo'l mehnatiga asoslangan mahsulotlar** — to'quvchilik, yumshoq o'yinchoqlar tayyorlash, zardo'stlik, popopchilik va h.k.
- ▶ **Mahallada xizmat ko'rsatish faoliyatlari** — enagalik, tozalash, kichik ta'mir ishlari va h.k.

Bandlik markazlari va “Monotsentr”lar orqali vaqtinchalik ish o'rinlari hamda kasb-hunar kurslari bo'yicha to'liq ma'lumot va amaliy ko'nikmalar 2 haftada o'rgatiladi.

Moliyaviy odatlar va xatolar

► Xatolar:

- Xarajatlarni qayd etmaslik
- Rejasiz xaridlar
- Jamg'armaning yo'qligi
- Qarzni tushunmasdan olish
- Daromadga bir manbali bog'liqlik

► To'g'ri odatlar:

- Daromad/harajatni yozib borish
- Oilaviy byudjet tuzish
- Jamg'arma qilish
- Qarzga mas'uliyat bilan yondashish
- Moliyaviy maqsad qo'yish

Xulosa:

- ▶ Moliyaviy bilim va ko'nikmalarni hayotga izchil tatbiq etish orqali har bir fuqaro o'z iqtisodiy holatini yaxshilashi, xavfsiz va barqaror kelajakka ishonchli qadam tashlashi mumkin.
- ▶ Moliyaviy barqarorlik — har bir insonning qo'lida